

---

Navbatdagi sayyor qabul Qirguli mavzeida o'tkazildi

**Bugun shahar hokimligi tomonidan tashkillangan sayyor qabulda Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov, sektor rahbarlari, O'zbekiston respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonasining shahar bo'limi mudiri Tavakkaljon Rahimov hamda hokim o'rinbosarlari ishtirok etishdi.**

**Qirguli mavzeidagi "Do'stlik uyi"ning faollar zalida sakson nafardan ortiq fuqarolarning murojaatlari mas'ul rahbarlar ishtirokida o'rganildi. O'ttiz nafarga yaqin fuqarolarning murojaatlar ijobiy hal qilindi.**

**Kelib tushgan murojaatlarni o'rganish va natijasi bo'yicha mualliflarga ma'lum qilish uchun masalaga daxldor xodimlar, korxonalar, tashkilot va bo'limlarga tegishli topshiriqlar berildi. Qabul so'ngida yuridik va jismoniy shaxslardan tushgan murojaatlarning o'rganilganlik holati hamda ijobiy hal etilishi bo'yicha tanqidiy tahlil qilindi.**

2023-11-22 14:13:13